INTERNATIONAL JOURNAL OF STATISTICAL ANALYSIS

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

Civil Liability for Damage Caused by Artificial Intelligence: Uzbek Legislation and International Experience

Azimov Kholbek Bakhtiyorovich

a second-year student at the Faculty of Criminal Justice, Tashkent State University of Law.

Abstract

This article analyzes issues of civil liability for damage arising from the use of artificial intelligence technologies. It examines the challenges associated with identifying the liable party, proving damage and causation, and restoring the violated rights of victims when harm is caused by the operation of artificial intelligence systems. Based on the civil legislation of the Republic of Uzbekistan, regulatory legal acts governing the field of artificial intelligence, and international experience, the article develops proposals for improving existing legal mechanisms.

Keywords

artificial intelligence, civil liability, damage, compensation for damage, causation, digital technologies, legal regulation, victims' rights.

Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik: O'zbekiston qonunchiligi va Xalqaro tajriba

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakultetining 2-kurs talabasi Azimov Xolbek Baxtiyorovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt tizimlarining faoliyati natijasida zarar yetkazilganda javobgar subyektni aniqlash, zarar va sababiy bog'lanishni isbotlash hamda jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklash bilan bog'liq muammolar o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligi, sun'iy intellekt sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari va xalqaro tajriba asosida mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

INTERNATIONAL JOURNAL OF STATISTICAL ANALYSIS
ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, zarar, zararni qoplash, sababiy bog‘lanish, raqamli texnologiyalar, huquqiy tartibga solish, jabrlanuvchi huquqlari.

Kirish

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, moliya, transport va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar inson faoliyatini yengillashtirish, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va murakkab vazifalarni avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi, shaxsga doir ma’lumotlar noqonuniy qayta ishlanishi, fuqarolarning mol-mulkiga zarar yetishi yoki ularning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqlari buzilishi ehtimoli ham mavjud.

Mazkur holatlar fuqarolik huquqi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, sun’iy intellekt tizimining xatosi tufayli zarar yuzaga kelganida kim javobgar bo‘lishi, zararni qoplash majburiyati qaysi shaxs zimmasiga yuklatilishi va jabrlanuvchi o‘z talablarini qanday isbotlashi kerakligi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini shakllantirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Jumladan, 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ–1115-son Qonun bilan sun’iy intellektdan foydalanishning umumiy asoslari belgilandi hamda shaxsga doir ma’lumotlarni sun’iy intellekt orqali qonunga xilof ravishda qayta ishlash bilan bog‘liq ma’muriy javobgarlik nazarda tutildi.[1]

Shunga qaramay, sun’iy intellekt faoliyati natijasida yetkazilgan zararni fuqarolik-huquqiy tartibda qoplash, javobgar shaxsni aniqlash va dalillarni taqdim etish bilan bog‘liq masalalarni alohida ilmiy-huquqiy o‘rganish zarur.Tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning amaldagi asoslarini tahlil qilish hamda O‘zbekiston qonunchiligini

[1] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.01.2026 yildagi O‘RQ-1115-son

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.Tadqiqotda huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

1. Sun’iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy vazifalaridan biri buzilgan huquqlarni tiklash va yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tartibga solingan. Xususan, Fuqarolik kodeksining 985-moddasiga muvofiq, fuqaroning shaxsi yoki mol-mulkiga, shuningdek yuridik shaxsga qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda, zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi lozim.[2] Mazkur modda ayrim hollarda zararni qoplash majburiyati zarar yetkazuvchi bo‘lmagan shaxs zimmasiga ham yuklatilishi mumkinligini nazarda tutadi.Ushbu normani sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarga tatbiq etishda, avvalo, zarar uchun javobgar bo‘lishi mumkin bo‘lgan subyektlarni aniqlash lozim. Bular jumlasiga sun’iy intellekt tizimini ishlab chiquvchi, uni muayyan mahsulot yoki xizmatga joriy etuvchi, tizimdan foydalanuvchi hamda undan foydalanish jarayonini nazorat qiluvchi shaxslar kirishi mumkin.Masalan, tibbiyot muassasasi kasallikni aniqlashda sun’iy intellekt tizimidan foydalandi, biroq tizim noto‘g‘ri tavsiya bergani sababli bemorga zarar yetdi. Bunday vaziyatda javobgarlikni faqat texnologiyani ishlab chiquvchiga yuklash har doim ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki zarar tizimdagi texnik nuqson, noto‘g‘ri ma’lumotlar, tibbiyot xodimining tavsiyani tekshirmasligi yoki bir nechta omilning birgalikdagi ta’siri natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.Shu sababli javobgarlikni belgilashda har bir ishtirokchining vazifalari, harakati yoki harakatsizligi, zarar bilan sababiy bog‘lanish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shartlar baholanishi kerak.Bunda sun’iy intellektning o‘zini mustaqil javobgar subyekt sifatida ko‘rishdan ko‘ra, uning ishlab chiqilishi va qo‘llanilishi ustidan nazorat qiluvchi insonlar hamda tashkilotlarning huquq va

[2] O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qismi, 29.08.1996

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

majburiyatlarini aniqlash muhimdir. Sun’iy intellekt tizimi texnik vosita bo‘lib, zarar yuzaga kelganining o‘zi muayyan ishlab chiquvchi yoki foydalanuvchining avtomatik ravishda javobgar bo‘lishini anglatmaydi. Javobgarlik tegishli qonunchilik normalari va ish holatlari asosida belgilanadi.

2. Sun’iy intellekt faoliyati natijasida yetkazilgan zararni isbotlash muammolari

Sun’iy intellekt bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy nizolarning muhim xususiyatlaridan biri zarar kelib chiqishining texnik sabablarini aniqlash murakkabligidir.An’anaviy huquqiy munosabatlarda zarar yetkazgan shaxsning xatti-harakati va uning oqibatlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash ko‘pincha bevosita dalillar asosida amalga oshiriladi. Sun’iy intellekt tizimlarida esa qaror yoki natija ko‘plab ma’lumotlar, algoritmlar, dasturiy yangilanishlar va avtomatik qayta ishlash jarayonlari ta’sirida shakllanishi mumkin.

Birinchidan, **sababiy bog‘lanishni aniqlash muammosi** mavjud. Zarar sun’iy intellekt tizimining texnik xatosi, sifatsiz ma’lumotlar, foydalanuvchining noto‘g‘ri harakati yoki inson nazoratining yetarli emasligi natijasida yuzaga kelganini aniqlash uchun maxsus texnik ekspertiza talab etilishi mumkin.

Ikkinchidan, **axborotga kirish imkoniyatining teng emasligi** kuzatiladi. Tizimni ishlab chiquvchi yoki undan foydalanayotgan tashkilot algoritm, texnik hujjatlar va tizim faoliyati qaydlariga ega bo‘lishi mumkin. Jabrlanuvchi esa bunday ma’lumotlarga mustaqil ravishda kira olmasligi sababli o‘z talabini asoslashda qiyinchilikka duch keladi.

Uchinchidan, **javobgarlikning bir nechta subyekt o‘rtasida taqsimlanishi** muammosi mavjud. Masalan, dasturiy ta’minotni bir tashkilot ishlab chiqqan, boshqa tashkilot uni o‘z xizmatiga joriy etgan, uchinchi shaxs esa undan bevosita foydalangan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda zarar uchun kim va qay darajada javobgar bo‘lishi kerakligini aniqlash alohida tahlilni talab etadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda dalillarni saqlash, tizimning ishlash tarixini qayd etish va texnik ekspertizadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

Shuningdek, sud nizoni ko‘rib chiqishda tegishli hujjatlarni talab qilish hamda taraflarning dalillarini qonunchilikda belgilangan tartibda baholash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Muallifning fikricha, sun’iy intellekt bilan bog‘liq nizolarda jabrlanuvchining dalillarga kirish imkoniyatini oshirish zarur. Biroq bu tizimni ishlab chiquvchi yoki foydalanuvchiga barcha holatlarda avtomatik javobgarlik yuklashni anglatmasligi kerak. Huquqiy mexanizm jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish bilan birga, javobgar deb ko‘rsatilgan shaxsning o‘z e’tirozlarini bildirish va aybi mavjud emasligini asoslash imkoniyatini ham ta’minlashi zarur.

3. Xalqaro tajriba va uni O’zbekiston qonunchiligida qo’llash imkoniyatlari

Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajriba ushbu texnologiyalardan xavfsiz foydalanish, inson huquqlarini himoya qilish va javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Yevropa Ittifoqida 2024-yil 13-iyunda qabul qilingan 2024/1689-son Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi reglament (AI Act) sun’iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab tartibga solish, ayrim tizimlar uchun maxsus talablar belgilash hamda inson huquqlari va xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan. [3]Bu reglamentga ko’ra sun’iy intellekt tizimlari xavf darajasiga ko’ra quyidagilarga ajratiladi:

1. **Qabul qilib bo‘lmaydigan xavf.** Odamlar xavfsizligi va asosiy huquqlariga jiddiy tahdid soluvchi tizimlar qat'iyan taqiqlanadi. Bunga ijtimoiy reytinglash odamlarni yashirincha manipulyatsiya qilish, ish joylarida emotsiyalarni aniqlash va jamoat joylarida real vaqt rejimida ruxsatsiz biometrik identifikatsiya qilish kiradi.

2. **Yuqori xavf.** Jamiyat va insonlar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadigan sohalardagi tizimlar. Bunga tibbiy asboblar, kritik infratuzilma, ta'lim, ishga qabul

[3] Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence and amending Regulations

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

qilish va huquqni muhofaza qilish organlari dasturlari kiradi. Ular uchun qat'iy texnik hujjatlar, xavfni boshqarish va doimiy inson nazorati talab etiladi.

3. **Cheklangan xavf .** Foydalanuvchilar bilan muloqot qiladigan yoki kontent yaratadigan tizimlar. Chat-botlar, sun'iy intellekt yaratgan rasm va matnlar hamda soxta video va ovoz mahsulotlari foydalanuvchiga ular sun'iy ekanligi haqida ochiq bildirilishi shart.

4. **Minimal xavf .** Xavfi deyarli yo'q tizimlar. Masalan, kompyuter o'yinlari yoki elektron pochtadagi spam-filterlar. Ular uchun qo'shimcha majburiyatlar qo'yilmaydi.

Mazkur reglament sun’iy intellektni tartibga solishning muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki yuqorida keltirilgan xavf darajalari asosida suniy intellektdan foyldalanishimiz kelgusida kelib chiqishi mumkin bo’lgan xavflarni kamaytirishga yordam beruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining 2024/2853-sonli Mahsulotlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi direktivasida dasturiy ta’minot, shu jumladan sun’iy intellekt tizimlari ham mahsulot sifatida ko‘rilishi mumkinligi belgilangan.[4] Bu yondashuv nuqsonli dasturiy ta’minot tufayli zarar yuzaga kelgan holatlarda mahsulot uchun javobgarlik qoidalarini qo‘llash masalasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Biroq direktivaning mazmunini barcha turdagi sun’iy intellekt zararlariga tatbiq etiladigan universal javobgarlik tizimi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas.

Xalqaro darajada yana bir muhim hujjat — Yevropa Kengashining Sun’iy intellekt va inson huquqlari, demokratiya hamda qonun ustuvorligi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasidir[5]. Ushbu konvensiya 2024-yil 5-sentabrda imzolash uchun ochilgan bo‘lib, sun’iy intellekt tizimlarining butun hayotiy sikli davomida inson huquqlariga rioya etish, shaffoflik, javobgarlik va xavflarni baholash tamoyillariga urg‘u beradi. Mazkur tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda bir nechta yo‘nalishga e’tibor qaratish mumkin.

[4] DIRECTIVE (EU) 2024/2853 OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL of 23 October 2024 on liability for defective products and repealing Council Directive 85/374/EEC
[5] Council of Europe Framework Convention on Artificial Intelligence and Human Rights, Democracy and the Rule of Law

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

Birinchidan, sun’iy intellekt tizimlari bilan bog‘liq zararlarni qoplash masalasida ishlab chiquvchi, tizimni joriy etuvchi va foydalanuvchining majburiyatlarini aniqroq belgilash lozim.

Ikkinchidan, yuqori xavfli tizimlardan foydalanishda xavflarni oldindan baholash, inson nazoratini ta’minlash va tizim faoliyatiga oid muhim ma’lumotlarni saqlash talablarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, zarar yuzaga kelgan taqdirda jabrlanuvchining tegishli texnik dalillarni olish imkoniyatini ta’minlaydigan protsessual mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xorijiy davlatlarning huquqiy tajribasini O‘zbekiston qonunchiligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy huquq tizimi va amaldagi fuqarolik qonunchiligi bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

4. O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo’yicha takliflar

O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellektdan foydalanishning umumiy huquqiy asoslari belgilangan bo‘lsa-da, mazkur texnologiyalar bilan bog‘liq zararlarni qoplash mexanizmlarini yanada aniqlashtirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Muallifning fikricha, quyidagi takliflarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

Birinchi taklif — fuqarolik qonunchiligida sun’iy intellekt bilan bog‘liq zararlarni qoplashga doir maxsus normalarni ishlab chiqish. Bunda ishlab chiquvchi, tizimni joriy etuvchi va foydalanuvchining vazifalari, xavfsizlik choralariga rioya etish majburiyatlari hamda zarar yuzaga kelgandagi javobgarlik asoslari aniq belgilanishi mumkin.

Ikkinchi taklif — yuqori xavfli sun’iy intellekt tizimlari faoliyatiga oid ma’lumotlarni saqlash talablarini joriy etish. Tizimning muhim qarorlari, texnik nosozliklari, yangilanishlari va inson tomonidan amalga oshirilgan nazorat harakatlari qayd etilishi zararni keltirib chiqargan sabablarni aniqlashni osonlashtiradi.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

Uchinchi taklif — sun’iy intellekt bilan bog‘liq fuqarolik nizolarida dalillarni olish mexanizmlarini takomillashtirish. Agar muhim texnik ma’lumotlar faqat javobgar tarafda mavjud bo‘lsa, sud tomonidan tegishli dalillarni talab qilish va ularni ekspertiza orqali tekshirish imkoniyatlarini samarali qo‘llash lozim.

To‘rtinchi taklif — xavfi yuqori bo‘lgan sohalarda javobgarlikni sug‘urtalash imkoniyatini o‘rganish. Masalan, avtonom transport, ayrim tibbiy texnologiyalar yoki katta moliyaviy xavf tug‘diradigan tizimlardan foydalanishda majburiy yoki ixtiyoriy sug‘urta mexanizmlarini joriy etish masalasi iqtisodiy va huquqiy jihatdan baholanishi mumkin.

Beshinchi taklif — zarar uchun javobgarlikni belgilashda mutanosiblik tamoyiliga rioya qilish. Tizimdan foydalanishda o‘z majburiyatlarini buzmagan shaxsni faqat sun’iy intellekt natijasi salbiy bo‘lgani sababli javobgar deb topish to‘g‘ri emas. Shu bilan birga, ishlab chiquvchi yoki foydalanuvchining xavfsizlik talablarini buzishi, zarur nazoratni amalga oshirmasligi yoki aniqlangan xavflarni bartaraf etmasligi javobgarlik masalasida tegishli baho olishi kerak.

Ushbu takliflar amaldagi qonunchilikda mavjud normalarni inkor etmaydi. Aksincha, Fuqarolik kodeksining 985-moddasida mustahkamlangan zararni to‘liq qoplash tamoyilini sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarda samarali amalga oshirishga qaratilgan.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini yangi sharoitlarda qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunda asosiy masala sun’iy intellektning o‘zini javobgar deb e’lon qilish emas, balki uning ishlab chiqilishi, joriy etilishi va qo‘llanilishi jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasi zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslarini belgilaydi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt bilan bog‘liq nizolarda zarar sababini aniqlash, texnik dalillarga

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 29.10.2026
PUBLISHED: 29.10.2026

kirish va bir nechta subyektning harakatlarini baholash kabi masalalar alohida yondashuvni talab qiladi.

Xalqaro tajriba sun’iy intellektni xavf darajasiga qarab tartibga solish, tizim faoliyatining shaffofligini oshirish, xavflarni oldindan baholash va zararlarni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston qonunchiligida sun’iy intellekt bilan bog‘liq zararlar uchun javobgarlik asoslarini aniqlashtirish, texnik dalillarni saqlash va olish tartibini takomillashtirish hamda yuqori xavfli tizimlar uchun qo‘shimcha xavfsizlik choralarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo‘nalishdagi huquqiy islohotlar jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlarini samarali tiklash, tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy aniqlikni ta’minlash va sun’iy intellekt texnologiyalaridan mas’uliyatli foydalanishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ–1115-son Qonuni. “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-8008401

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism). 1996-yil 29-avgust. 57-bob, 985-modda. https://lex.uz/docs/-180552

3. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). EUR-Lex.

4. Directive (EU) 2024/2853 of the European Parliament and of the Council of 23 October 2024 on liability for defective products. EUR-Lex.

5. Council of Europe. Framework Convention on Artificial Intelligence and Human Rights, Democracy and the Rule of Law. 2024. Council of Europe.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/